

The image shows the front cover of a publication. At the top right, the logo of Buxoro Davlat Universiteti is displayed, featuring a stylized 'B' and 'D' in blue and orange, with the text 'BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI' below it. To the right of the logo, the title 'ILMIY AXBOROTI' is written in large, bold, white capital letters. In the center, the year '6/2023' is prominently displayed. Below the year, the text 'Научный вестник Бухарского государственного университета' and 'Scientific reports of Bukhara State University' are written in both Russian and English. To the left of the text, there are two barcodes: one for the E-ISSN (2181-1466) and one for the ISSN (2181-6875). At the bottom left, social media links for Telegram (@buxdu_uz), Instagram (@buxdu1), Facebook (@buxdu1), and the website (www.buxdu.uz) are provided. The background of the cover features a photograph of the modern, multi-story building of Buxoro Davlat Universiteti under a clear sky.

6/2023

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

E-ISSN 2181-1466

ISSN 2181-6875

9 772181 146004

9 772181 687004

@buxdu_uz @buxdu1 @buxdu1 www.buxdu.uz

6/2023

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI

Ergasheva G.B.	Features of formation of lexicon related to profession in English and Uzbek languages	93
Radjabova D.A.	Ingliz va O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida mineralogik birliklarning metalllik xususiyatlari	98
Tursunov M.M., Rahmatullayeva A.T.	Ingliz va O'zbek lingvomadaniyatida mehnatkashlik va yalqovlik konseptlarini ifodalash yo'llari	105
Zikrillayev G'.N., Safarov F.S., Ro'ziyev Y.B.	Falsafiy tilshunoslik va metodologiya	110
Umarova N.R., Tojiboyeva M.Sh.	Ingliz va o'zbek tillarida "donolik" konsepti bilan bog'liq antropomorfik belgilar	121
Ибрагимова Н.А.	Инглиз ва ўзбек тилларида аутентик матнларнинг шаклланиш тамойиллари	126
Шарипова М.К.	Лексические и грамматические особенности аббревиатур в русских и узбекских СМИ: аспекты стандартизации и нормативности	130
Boltayeva N.R.	Siyosiy nutq – siyosiy diskurs shakli sifatida	138
Jalilzada A.M.	Typology and classification of abbreviations	143

ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM ***
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

Xodjayeva D., Bozorova X.B.	Jeyn Ostinning "G'urur va andisha" asarida ayol obrazining tasvirlanishi	151
Elboyeva M.B.	Jek London va Murod Muhammad Do'st hikoyalarida shaxs va jamiyat munosabatlarining psixologik tasviri	156
Mardanov R.G'.	O'zbek mumtoz she'riyatida obrazlar talqinining ilmiy o'r ganilishi	160
Qobilova A.A.	Anvar Obidjonning yumoristik she'rlarida an'ana va takomil	166
Yaxshiyeva Z.R.	O'zbek adabiyotida Amir Temur va Temuriylar obrazi talqinlari	171
Yunusova G.R.	Yo'l xronotopining badiiy poetikasi va o'ziga xos xususiyatlari	177
Касимова Р.Р.	Таржима жараёнини тадқиқ этиш	181
Komiljonova K.G'.	Erkin Vohidov lirikasida tashxis san'atining qo'llanilishi	187
Muxammadova M.M.	Muhammad Shayboniy Nisoriy talqinida	192
Ashurova G.N.	Mustaqillik davri dramalarida Alisher Navoiy shaxsiy hayotining talqinlari	197

LINGUISTICS

UO'K: 81

INGLIZ VA O'ZBEK LINGVOMADANIYATIDA MEHNATKASHLIK VA YALQOVLIK KONSEPTLARINI IFODALASH YO'LLARI

*Tursunov Mirzo Mahmudovich,
Buxoro davlat universiteti, Ingliz tilshunosligi
kafedrasi dotsenti, fff.d. (PhD)
mirzobek.tursunov81@gmail.com*

*Rahmatullayeva Anora To'lqin qizi,
Buxoro davlat universiteti, Lingvistika: ingliz tili
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
rahmatullayevaanora088@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqola tilshunoslik uchun muhim bo'lgan mavzularidan biri haqida ma'lumot beradi. Unda mehnatkashlik va yalqovlik dixotomiyasining turli paremiologik birliliklar, ya'ni maqol, hikmatli so'zlar, frazeologik birliliklarda qanday qo'llanilishi haqida misollar beriladi. Bundan tashgari, maqolada badiiy asarlarda ushbu ikki tushunchaga oid yuqorida keltirilgan til birliliklaridan namunalar keltirilib, tahlil qilinadi. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi mehnatkashlik va yalqovlik konseptlari ishtirokidagi leksik birliliklar qiyoslanadi, hamda ma'lum lingvomadaniy farqlar kuzatiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyat, konsept, lingvokulturemalar, paremiologik birliliklar, maqollar, aforizmlar, iboralar.

СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ КОНЦЕПТОВ ТРУДОЛЮБИЯ И ЛЕНИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье представлена информация об одной из важных тем для языкознания. Приводятся примеры употребления дихотомии трудолюбия и лени в различных паремиологических единицах, т.е. в пословицах и фразеологизмах. Кроме того, в статье анализируются примеры употребления вышеперечисленных языковых единиц, связанных с этими двумя понятиями, в художественных произведениях. В статье сравниваются лексические единицы с понятиями трудолюбия и лени в английском и узбекском языках, и отмечаются определённые языковые и культурные различия.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, лингвокультура, концепт, паремиологические единицы, пословицы, мудрые поговорки, афоризмы, фразеологизмы.

WAYS OF EXPRESSING THE CONCEPTS OF HARD WORK AND LAZINESS IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTICS

Abstract. This article provides information about one of the important topics for linguistics. It gives examples of how the dichotomy of hard work and laziness is used in various paremiological units, i.e. proverbs, aphorisms, phraseological units. In addition, the article presents and analyzes examples of the above-mentioned linguistic unites related to these two concepts in literature. The article compares the lexical units involving the concepts of hard work and laziness in the English and Uzbek languages, and certain linguistic and cultural differences are observed.

Key words: cognitive linguistics, linguoculture, concept, linguocultural units, paremiological units, proverbs, aphorisms, phraseological units.

Kirish. Zamon taraqqiy etar ekan, yangi bilimlar orttirish istagi paydo bo'laveradi. Jumladan, ilmiy soha vakillari ham fanda haligacha o'z isbotini to'laligicha topmagan yo'nalishlardan biri kognitiv tilshunoslik haqida izlanishlar olib bormoqdalar. Ma'lumki, kognitiv tilshunoslik insonning bilih qobiliyati haqidagi fandir. Ushbu soha paydo bo'lgan vaqt turli olimlar tomonidan turlicha aytildi. Mohiyatiga ko'ra kognitiv lingvistika 1980-yillarning oxirida shakllanib bo'lgan. Ushbu fanning maqsadi til tizimining inson bilih jarayonidagi ishtirokini aniqlash hisoblanadi [1; 11-13]. Kognitiv tilshunoslik bilan ko'plab olimlar ish olib borgan, jumladan, Charlz Fillmor, Jorj Lakof, Ronald Langaker, Leonard Talmi, Aleksandr Kibrik.

LINGUISTICS

Bundan tashqari bir necha o'zbek olimlari ham kognitiv lingvistika haqida o'z fikrlarini bildirib tadqiqotlar olib borganlar.

Sh.Safarovning fikricha, kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lash, chuqr ilmiy tadqiq etishdir [1; 14-15].

Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri bu - konsept. Konsept so'zi lotincha conceptus bo'lib, "tushuncha" ma'nosini ifodalaydi.

Ye.S.Kubryakovaning fikricha, "konsept termini tafakkur, anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya, kognitiv tilshunoslik hamda lingvokulturologiya fanlari uchun "soyabon" vazifasini o'taydi [2; 34].

Inson tug'ilibdiki, dunyoni anglash jarayoni sodir bo'la boshlaydi va bola ongida nafaqat u o'rgangan so'zlarning ma'nolari, balki shu ma'no ostida yashiringan tug'ilib o'sgan millatning milliy qadriyat, an'ana va tarixiy tajribalarining mujassamligida konseptlar paydo bo'la boshlaydi. Ya'ni, tajriba qanchalik boy bo'lsa, konseptning chegarasi shunchalik kengayib boraveradi. Konsept yuksak darajadagi umumiyligka ega. Konsept asosida tushuncha, ma'no, obraz yotadi. Konsept tushunchasi 80-yillarda ingliz olimlari Cheyf, R.Jakendorf, Lakoflarning asarlari orqali tilshunoslardan iste'moliga kirib keladi.

Konsept nafaqat kognitiv tilshunoslikning balki XX asrning oxirlarida fanga yangi bir masala, til va madaniyat muammosini o'rganish istagidan vujudga kelgan yangi yo'nalish lingvokulturologiyaning ham asosida tushunchasi hisoblanadi. Professor N.Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi haqida shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammollariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Yevropadagi tilshunoslidka bu yo'nalish niyoyatda keng tarqaganini ko'rish mumkin. Bu boradagi ishlarni sanab sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan" [3].

Ushbu yangi yo'nalish borasida g'arb va sharqning bir qancha olimlari tadqiqot olib borgan. Bulardan jahon tilshunoslida G.B.Palmer, V.V.Vorobei, V.A. Maslova, V.I.Karasik, O.E.Salnikova, o'zbek tilshunoslida esa G.Boqiyeva, A.Mamatov, J.Yoqubov, Sh.Safarov, D.Ashurova kabi tadqiqotchilarining ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Lingvokulturologiyaning predmeti doimiy o'zaro ta'sirlanish holatida bo'lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi. Xalq madaniyati til orqali verballahadi, til madaniyatning tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltira oladi.

Konseptdan tashqari lingvokulturologiyaning yana bir asosiy tushunchalaridan biri bu lingvokulturemadir. Ushbu atama ilk bor V.V.Vorobei tomonidan qo'llangan bo'lib, lingvokulturema predmetlik ma'nosidan tashqari milliy-madaniy ma'noni ham o'z ichiga oladi.

O'.Yusupovning ta'kidlashicha, "Lingvokulturema o'z semantikasida madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi" [4].

Asosiy qism. Barcha tillardagi frazeologik birikmalar, xususan ingliz tilidagi frazeologik birikmalar ham, millatning donishmandligi va lingvistik didini ko'rsatuvchi xalq ijodi hisoblanadi. Ko'pgina frazeologik birikmalar o'zida ingliz xalqining an'analarini, odatlari va e'tiqodi, Angliya tarixinining biz bilgan va bilmagan tarixiy haqiqat va dillarini aks ettiradi. Ko'plab frazeologik birikmalarining ildizlari kasbiy muloqotga borib taqaladi. Frazeologik birikmalarning asosiy manbasi – bu ularning tarkibidagi o'zaro birikkan so'zlarning o'z ma'nolarini o'zgartirishidir [5].

Lingvokulturemalar xalqning o'ziga xos madaniyatini uning til birliklari orqali aks ettiruvchi lisoniy hodisadir. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini ifodalovchi so'zlar, frazeologik birliklar, maqollar, so'z birikmalarini va hokazolar kiradi. Ushbu maqolada ana shunday lingvokulturemaning tarkibiy qismiga kiruvchi maqollar va aforizmlar talqinida ingliz va o'zbek madaniyatida mavjud bo'lgan ikki tushuncha: mehnatsevarlik va yalqovlik konseptlarining tahsiliga nazar tashlanadi.

Maqollar xalq donishmandligining yorqin namunasi sifatida avloddan-avlodga o'tib, meros bo'lib keluvchi xalq boyligidir. Maqollar xalqning orzu-istik, armonlari, quvonch, baxt, omad, xullas jamiki xislatlarini ifoda etuvchi purmano birliklardir. Maqollar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari kabi o'zida xalqning milliy madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. O'zbek milliy madaniyatida maqollarga bola tarbiyasida muhim rol o'ynovchi vosita sifatida qaraladi va bola tug'ilibdiki unga to'g'ri tarbya bermoq uchun xalq maqollari yordamga keladi. Hozirda tilimizda 30 dan ortiq mavzudagi minglab maqollar mavjud. Shulardan biz maqolada mehnatkashlik va yalqovlik haqidagi maqollarga to'xtalib o'tamiz.

Mehnatli non-shakar,

Mehnatsiz non-zahar.

LINGUISTICS

Mehnatning ko'zini topgan

Boylikning o'zini topar [6; 33].

Ushbu mehnatni ulug'lovchi maqollar o'zbek xalqi uchun tanish, albatta. Ularda mehnat ortidan kelgan rizq shirin va barakali bo'lishi, mehnatni sevgan odam aslo xor bo'lmasligi kabi ma'nolar yotadi.

Yalqovlik, oxiri xo'rlik.

Yalqov – o'ziga yov.

Yuqoridagi maqollarda esa yalqov va dargasalik qoralanib, shunday xislatli kishilar aslo baraka topmasligi, hayotda xorlik va xo'rlikdan boshqa narsani ko'rmasligi uqtiriladi.

Xalqimizda bolaga yoshlidkan ertak aytib berish odati mavjud. Kishi uchun zarur fazilatlar: mehnatsevarlik, halollik, oqillik, donolik aynan ertaklar orqali singdiriladi. Shu jihatdan mehnat haqidagi ertaklar juda o'rinnlidir, chunki ularda mehnatni ulug'lab, dargasalikni qoralovchi maqollar mavjud. Deyarli har bir ertakni shu mavzudagi maqollarsiz tasavvur etish qiyin. Jumladan, "Mehnat-mehnatning tagi rohat", "Gap desang- qop-qop, ish desang- betob", "Yomg'ir bilan el ko'karar, mehnat bilan-el", "Ishlagan osh tishlar, ishlagagan-tosh" kabi maqollar bolajonlarning mashhur ertaklaridan joy olgan. Ushbu sermazmun maqollar yosh avlod tarbiyasiga ijobji ta'sir qilmay qolmaydi, albatta.

Maqollar xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va kundalik hayotini yorituvchi ko'zgudir. Biror yozuvchi, shoirlar yo'qliki, asarlarida xalq maqollaridan foydalanmagan bo'lsa. Xususan, mutaffakkir Mahmud Koshg'ariy o'zining mashhur "Devoni lug'otit-turk" devonida 250 dan ortiq maqollar qo'llagan. Mavzu jihatdan turlicha bo'lган ushbu maqollar ichida mehnat haqidagi maqollar ham uchraydi.

Kichikda qatig'lansa, ulg'azu sevnur [7; 50].

Bu maqol yoshlidka qiyinalib harakat, mehnat qilgan inson, kata bo'lgach sevinadi degan ma'noga ega. Darhajiqat, yoshlidka qiyangan inson, ulg'aygach albatta rohatini ko'radi. Mehnatsevarlik ruhida yozilgan bu maqol hozirgi "Mehnat-rohatning poydevori", "Mehnat qilsang rohat ko'rasan" kabi maqollarga mazmunan yaqin.

Bundan tashqari, XX asr o'zbek adabiyotining namoyondalaridan biri Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida "Oson ishda lazzat yo'q" [8; 80] maqoli qo'llanilgan. Bu bilan yozuvchi davlat ishlarini boshqarish oson emasligini, xalqni boshqarishda ham yetarli bilim, tajriba buning ortida esa mashaqqatli mehnat yotishini ta'kidlaydi.

O'zbek tilida bo'lgani kabi ingliz tilida ham ingliz madaniyati, turmush tarzini aks ettiradigan milliy maqollar bor.

The labourer is worthy of his hire [9].

Ushbu maqol o'zbek tilidagi "Ishlab topganing-osh, Ishlamay topganing-tosh" maqoliga mazmun jihatdan to'g'ri keladi. Biz maqollarni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilolmaymiz, ularning boshqa tildagi ekvivalentini bera olamiz xolos. Buning sababi esa, maqollar madaniyatning bo'lagi, madaniyat esa turli millatlarda turlichadir. Yuqoridagi maqolda halol mehnat ortidan topilgan non lazzatli bo'lishi, ammo, mehnatsiz topilgan narsa hech qachon huzur bermasligi haqidagi ma'nolarni mujassam qilgan.

"Work is done, time for fun" maqolining o'zbekcha ekvivalenti aynan "Mehnat qilib topganing, qandu asal totganing" dir, ya'ni, dunyoda barcha yaxshiliklar mehnat ortidan keladi. Yalqovlik, dargasalik insonga na halovat, na rohat bera oladi.

Ingliz tilidagi mehnatni ulug'lovchi maqollar ham mashhur yozuvchilar e'tiboridan chetda qolmagan. Asarning ma'nosini boyitish va kitobxonning qiziqishini uyg'otish uchun ingliz yozuvchilari maqollardan o'z asarlarida unumli foydalanishgan. Shulardan mehnatkashlik va yalqovlik haqidagi maqollar tahliliga to'xtalib o'tamiz. Mashhur yozuvchi Achebe Chinka o'zining "Arrow of God" romanida "The lizard that jumped from the high iroko tree to the ground said he would praise himself if no one else did" [10; 77-78] maqolini majoziy ma'noda qo'llagan. Ushbu maqol asar qahramoni yosh fermer Okonkovning mehnatsevarligini, maqsadi yo'lida hech bir qiyinchilikka yengilmasligini ifodalaydi. Yana bir maqol "An old woman is always uneasy when dry bones are mentioned in proverbs" asarda ishlatalgan bo'lib, unda yalqov odam keraksiz bir buyumga taqqoslanadi. Asarda bu maqol qahramonning dangasa otasiga nisbatan qo'llanilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har ikkala millat madaniyatida ham mehnatkashlik va yalqovlikka nisbatan qarashlar deyarli bir xil. Har ikkala millatda mehnat qiluvchilar ulug'lanib, dangasa va tekinxo'r kishilar esa jamiyatning eng past tabaqasidan hisoblanib hurmat qilinmaydi.

Mehnatkashlik va yalqovlik konseptlarini ifodalaydigan birliklardan yana biri bu aforizmlardir. Aforizmlar mashhur donishmand, mutaffakkirlar tomonidan aytilgan hikmatli so'zlar bo'lib unda xalq donishmandligi mujassam. Ushbu barqaror birikmalar ham ingliz va o'zbek millati turmush tarzi, dunyoqarashi, tarixi va madaniyatini yoritib beradi. Maqoldan farqli ravishda, aforizmlarda aynan muallif

LINGUISTICS

bo'ladi. Aforizmlar ham yozuvchilar tomonidan asarlarning badiiy bo'yoqdorligini oshirish uchun ishlatalib kelinadi. Quyida ingliz va o'zbek tillaridagi asarlarda keltirilgan mehnatkashlik va yalqovlik haqidagi aforizmlarni tahlil qilamiz.

Buyuk mutaffakkirlarimizdan Abdurahmon Jomiy mehnatkashlik haqidagi qarashlari diqqatga sazovordir. U har bir inson mehnat bilan yashab, hayot kechirmog'i lozimligini, mehnat baxt keltiruvchi vosita ekanligini ta'kidlab, buni o'zining ijodida ham aks ettiradi:

O'z mehnating bo'lgin doim yo'ldoshing,

O'zga minnatidan og'ritma boshing.

Alisher Navoiy insonni komil inson sifatida shakllanishining asosiy omili bu- mehnat ekanligini ta'kidlaydi:

Mehnat arodir murod topmoq, bilgil,

Mehnat arodir qo'shoq topmoq, bilgil.

Ushbu parchada azaldan xalqimiz nechog'lik mehnatni qadrlashining guvohi bo'lishimiz mumkin. Millatimizda barcha ezguliklarning boshi halol mehnatga borib taqaladi.

Yusuf Xos Hojibning mashhur "Qutadg'u bilig" dostonida shunday deyilgan:

Qaysi narsaga ko'p mehnat qo'shilsa,

O'sha narsa sevimli, hamma (narsa) dan aziz bo'ladi [11; 90].

Kishi qaysi narsaga mashaqqat bilan qiynalib erishsa, shu narsa totli, qadrli bo'lishi yana bir karra aks ettirilgan ushbu parchada. Osonlik bilan erishilgan narsa esa hamisha beqadr bo'ladi.

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida ham biror ishni bitkazish uchun mashaqqat talab etiladi, yaxshi ishga qiyinchilksiz erishib bo'lmaydi ma' nosida qo'llangan quyidagi hikmatli so'z keltirilgan: "Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo'lmas" [12; 46].

XX asr yozuvchilaridan Asqad Muxtorning "Chinor" romanida ham insonni mehnatga undovchi "Mehnatda gap ko'p", "Mehnat qilishimiz farz-u, barcha ishlarmizni tamom oxiriga yetkazish bizga nasib qilmagan" [13; 56-106] kabi aforizmlar asar qahramonlari tilidan aytilgan.

Uzuddi shunday ingliz adabiyotida ham mehnatkashlik va yalqovlikni ifodalovchi aforizmlar ko'p qo'llangan. Jumladan, Oskar Vildening "The Importance of Being Earnest" asarida "It is awfully hard work doing nothing" [14; 68] aforizmini ishlatgan, ya'ni eng rasvo, qiyin ish bu hech narsa qilmaslikdir. Hech qanday yumush bilan band bo'lmaslik bu eng yomon narsa deya ta'riflaydi yozuvchi.

Yozuvchi Frank Sonnenbergning "The path to a Meaningful life" asaridagi quyidagi aforizmi e'tiborga molik, "Hard work isn't a punishment. It builds character, provides a sense of purpose, and promotes confidence and self-esteem" [15; 14]. Darhaqiqat, og'ir mehnat bu jazo emas, balki u kelajak uchun maqsadlar belgilab beruvchi va insonda shu maqsadga erishish uchun ishchonch beruvchi kuchdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mehnatkashlik va yalqovlik tushunchalari haqida keltirilgan yuqorida aforizmlar insonlarning bu dixotomiyaiga nisbatan qarashlari, munosabatlarini yaqqol ko'rsatib bergen. Bu ham, albatta, bevosita milliy madaniy qarashlarga borib taqaladi. Demak, hech bir millat yo'qliki, dangasalikni ulug'lasa, mehnatsevarlikni esa hayotiy muhim xususiyatlardan biri deb hisoblamasa. Ingliz va o'zbek tillarida bu ikki tushunchaga nisbatan munosabat bir xil. Buni xalq xazinasining ko'zgusi-maqollar hamda aforizmlardan keltirilgan namunalular orqali kuzatdik va o'rgandik. Kuzatganimizdek, ingliz va o'zbek tilidagi mehnatkashlik va yalqovlik konseptlarini oshib berishda maqollarda bir qancha vositalar muhim rol o'ynagan. Barcha maqollarda metaforalik, obrazlilik, ta'sirchanlilik, hissiy bo'yodkorlik, qisqalik, majoziylik mavjud. Yuqorida tahlil qilingan ko'pchilik ingliz tilidagi maqollarda ham aynan metaforalardan foydalaniylgan. Demak, o'zbek tiliga qiyoslaganda ingliz tilidagi maqollar majoziy, ko'chma ma'no orqali yaratilgan. Buni ikki til leksik birliklaridagi farq deya olamiz. Ammo, ta'kidlaganimizdek, ingliz va o'zbek tilidagi mehnatkashlik va yalqovlik mavzusiga oid maqollar deyarli bir xil ma'no-mazmunga egadir. Faqat har ikkala tilda aynan bir-biriga mos keladigan so'zlardan foydalaniylmagan. Ikki tildagi mehnatkashlik va yalqovlik haqidagi maqollarning barchasida mehnat muvaffaqiyat kaliti sifatida, yalqovlik esa bir chuqurlikka g'arq qiluvchi salbiy xususiyat sifatida ko'rsatiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Safarov Sh. *Kognitiv tilshunoslik. Sangzor nashriyoti.* 2006. 11-13-betlar.
2. Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика –психология–когнитивная наука. Вопросы языкоznания. 1994. 34-b.
3. Mahmudov N. *Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. O'zbek tili va adabiyoti.* 2012.
4. Komilova, G. T. *Scientific journal Impact Factor.* 2021.

LINGUISTICS

5. Tursunov M. Ubaydullayeva M. Ingliz va o'zbek tillarida mubolog'aga asoslangan ba'zi bir frazeologik birliliklarning lingvokognitiv tahlili. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2022.
6. Savonqulova X. O'zbek xalq maqollari. Adabiyot uchqunlari. 2014. 33-b.
7. Koshg'ariy M. Devoni lug'otit-turk. III tom. O'zbekiston F.A nashriyoti. 1963. 50-b.
8. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. Toshkent. Navro'z nashriyoti. 2019. 80-b.
9. Mieder W. International Proverb Scholarship. New York: Garland publishing.
10. Achebe Chinka. Arrow of God. London Heinemann. 1974. 77-78.
11. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent. Fan. 1971. 90-b.
12. Gulxaniy. Zarbulmasal. Ma'naviyat nashriyoti. 2016. 46-b.
13. Asqad Muxtor. Chinor. Yoshlar nashriyoti uyi. 2018. 56-106.
14. Oscar Wilde. The Importance of Being Earnest. 1899. 68-b.
15. Frank Sonnenberg. The Path to a Meaningful life. 2022. 14-b.